

## ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJI BO'LGAN BOLALARDA O'QUV MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA O'YIN TERAPIYASINING AHAMIYATI

*Xamrayeva Maftuna Shuhrat qizi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishi  
2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Alohida ta'limga ehtiyoji mavjud o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish, o'quv motivini shakllantirishda aynan o'yin terapiyasining o'rni va ta'siri, o'yin terapiyasini qo'llash masalalari, o'quvchilarning rivojlanishi, tarbiyalanishida alohida rol o'ynashi haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Terapiya, bolaning shaxsiyati, munosabatlar, qiziqarli tarzda, ma'suliyat, o'yin jarayonida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori mazkur yo'nalishdagi bolalarda ta'limni psixologik tashkil etish tizimini ham yo'lga qo'yilishida turtki bo'ldi. Aynan ta'limning bu shaklida o'qitish bo'g'inlarida turlicha vositalardan foydalaniladi. Inklyuziv ta'lim turida o'yin terapiyasi bola shaxsiyatini shakllantirish, fikran rivojlantirish, fiziologik o'zgarishlarga sabab bo'ladi. O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin nafaqat kattalar balki bolalar hayotida ham alohida o'rin tutadi. Uni "bolalikning hamrohi" deb atash qabul qilingan. O'yin mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada olib boriladigan jarayondir. O'yinda shaxsda mavjud jihatlar ishga tushadi, ya'ni bola gapiradi, sakraydi, harakat qiladi, idrok etadi, diqqatini jamlaydi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarda tabiat bilan tanishtirishdagi amaliy metodda o'yin asosiy rol o'ynaydi. Tabiatning oddiy voqea - hodisasi va narsa (predmet) lari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma - xil o'yinlardan keng foydalaniladi. Bu o'yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o'zlashtiradilar.

N.M.Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'z - o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit talab etiladi:

- taassurotlar tarkib topishi;
- har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muhayyoligi;

-bolalarning kattalar bilan tez - tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sog'lom bolalardan farqli jihatda alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bolalar defektologik xususiyatlariga ko'ra ta'lim muassasalarida tarbichilar tomonidan olib boriladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik, harakatli va ijodiy o'yinlardan foydalanish mumkin.

Didaktik o'yinlar. Didaktik o'yinlarda bolalar o'zlarida tabiatdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydi, kengaytiradi. Ko'pgina o'yinlar bolalar bilimni umumlashtirish hamda sistemaga solishga o'rgatadi. Didaktik o'yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o'sishiga yordam beradi, bolalarni mavjud bilimlardan yangi sharoitlarda foydalanishga o'rgatadi, turli aqliy jarayonlarni aktivlashtiradi, lug'atni boyitadi, bolalarda birgalikda o'ynash ko'nikmasini tarbiyalashga yordam beradi, Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda predmetli, stol - bosma va og'zaki didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Predmetli o'yin. Bolalar aktiv muloqotda bo'ladigan predmetlarning xususiyati hamda belgilari haqidagi tasavvurlari aniqlanadi va boyitiladi. Predmetli o'yinlarni bolalarning barcha yoshdagi guruhlari bilan ham, shuningdek yoshini hisobga olgan holda, bir oz murakkablashtirib individual holda ham o'tkazish mumkin. O'yin so'z bilan birgalikda olib boriladi, so'z yo rasm idrok etilishidan oldin keladi yoki o'yin bilan uyg'unlashib ketadi.

Og'zaki o'yinlar ("Nima uchadi, yuguradi, sakraydi", Suvda, havoda, yerda" "Kerak - kerak emas' va shu kabilar) hech qanday jihoz talab qilmasligi tufayli juda maqbuldir. Ular u yoki bu predmetning funkstiyalari hamda harakatlari haqidagi bilimlarni umumlashtirish va sistemalashtirish maqsadida o'ynaladi. Bu o'yinlar diqqatni, zehnlilikni, reakstiya tezligini, ravon nutqni rivojlantiradi.

Harakatli o'yinlar. Tabiatshunoslik karakteridagi harakatli o'yinlar hayvonlarning xatti-harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog'liq bo'lib, ba'zilarida jonsiz tabiat hodisalari aks ettiriladi. Oyinlarda harakatlarga, tovushlarga taqlid qilib, bilimlarni chuqurroq egallaydilar; o'yindan zavqlanish bolalardagi tabiatga bo'lgan qizishni chuqurlashtiradi.

Ijodiy o'yinlar. O'yinda bolalar mashg'ulot, kundalik hayot jarayonida olingan taassurotlarni aks ettiradilar, kattalarning tabiatdagi mehnati haqidagi bilimni egallaydilar, bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi, ular kattalarning tabiatdagi mehnatining ahamiyatini anglab oladilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi, his - tuyg'u, o'zaro muomala va muloqotlarning xususiyatlarini, o'ziga va o'zgalarga, atrof - muhitga munosabatlarini yaqqol voqelik tarzida ijro etishi uchun turli

o'yinchoqlardan shuningdek, ularning vazifasini o'tovchi narsalardan ham foydalaniladi. Shu tarzda rolli o'yinlar paydo bo'ladi. Bu o'yinlar orqali bola obrazlarni sezishi, o'yin mazmunini tushunishga harakat qilishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning ushbu yo'nalishida tahsil oluvchilardagi ruhiy, jismoniy, fiziologik jihatlar sog'lom o'quvchilardan tafovutlanib shaxslararo munosabatlarga va ijtimoiylashuvga moslashtirishda o'yin terapiyasining ahamiyati katta. O'yin-harakat, g'alaba! o'quvchilar o'yin davomida o'zlarini to'liq erkinlik, xavfsizlik va psixologik ozodalikni his qilishadi. Bu esa o'z navbatida o'yin terapiyasi vazifasini bajaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. O'zbekiston .Toshkent: 2021. 81-bet
2. G. Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. 2006.
3. R.S. Solomov, M.X. Mirjamolov Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sport mashg'ulotlariga moslashishi o'quv uslubiy qo'llanma. T.: ITA-PRESS, 2015
4. M.X. Mirjamolov, A.S. Yunusov, O'yin tarixi va qoidalari. O'quv uslubiy qo'llanma, -T.: Ilmiy texnika axborot-press, 2019